

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

NEMATOV ABBOSJON QAYIMOVICH

PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICH
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.02.03-Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Nematov Abbosjon Qayimovich

Paxtani mayda iflosliklardan tozalagich konstruksiyasini takomillashtirish ... 3

Нематов Аббосжон Кайимович

Совершенствование конструкции очистителя хлопка от мелкого сора.... 25

Nematov Abbosjon Kayimovich

Improvement of the design of a cotton cleaner for fine trash impurities..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

NEMATOV ABBOSJON QAYIMOVICH

PAXTANI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICH
KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.02.03- Texnologik mashinalar, robotlar, mexatronika
va robototexnika tizimlari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3675 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.ttysi.uz>) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamatova Dilrabo Alisherovna
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xakimov Sherqul Shergoziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Ibragimov Farxod Xayrullayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 26-iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shoxjaxon ko'chasi, 5-uy). Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: (titlp_info@edu.uz. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (302-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shoxjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel: (+99871) 2530606, (+99871) 2530808.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 13-iyun kuni tarqatildi.
(2026 yil 13-iyundagi 302-raqamli reestr bayonnomasi)



X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

SH.SH.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotini muhim bo'g'inlaridan biri to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada paxta tolasini yetishtirish va uni qayta ishlash bo'yicha yetakchi, jumladan, Xitoy, AQSH, Hindiston, Turkiya kabi qator mamlakatlarda paxtani birlamchi qayta ishlash texnologik jarayoni uchun yangi ishchi qismlar ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda paxta tolasi sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish imkonini beruvchi yangi energiya-resurstejamkor texnologik mashinalar va jihozlardan foydalanishga hamda qo'llanilayotganlarini chuqur takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash texnologiyalarini takomillashtirish va ularni amalga oshiruvchi energiya-resurstejamkor uskunalarni ishlab chiqish, ularning ilmiy asoslarini rivojlantirish, paxta tozalash texnologik mashinalarining ishlash rejimlari va mahsulot sifatini nazorati bo'yicha avtomatik boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish, texnologik jarayonga ta'sir etuvchi omillarni maqbul qiymatlarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda jahon paxta tozalash sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan paxta tozalash uskunalari takomillashtirish va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va ishchi qismlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish va paxtani tozalash jarayonini ishlash rejimlarini maqbullashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikada keng turdagi sifatli paxta mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish vazifasi belgilab berilgan¹. Ushbu vazifani amalga oshirish, jumladan paxta sanoatining texnologik mashinalarini zamon talablari darajasida takomillashtirish, texnologik mashinalardagi ishchi organlar va uzatmalarini yangi turlarini ishlab chiqish, paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalash uskunalari samaradorliklari yuqori bo'lgan resurstejamkor texnologiyalarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 21-son “Respublika hududlarida paxta hosili terimini mexanizatsiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 22-iyundagi 397-son “Paxta to‘qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II.“Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash uskunalarini takomillashtirish bo‘yicha qator chet el olimlari M.N.Willutt, S.E.Hughs, G.J.Mangialardi, S.G.Jasckson, G.C.Robert, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Barker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.VanDoorn, B.M.Norman va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarining ko‘rsatkichlari va ishlash rejimlarini takomillashtirish bo‘yicha respublikamizning bir qator olimlari, shu jumladan B.A.Levkovich, S.D.Boltaboyev, A.N.Nuraliyev, S.A.Samandarov, X.K.Tursunov, R.Z.Burnashev, G.D.Djabbarov, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, B.I.Roganov, G.I.Miroshnichenko, A.Djurayev, E.T.Maksudov, T.M.Kuliyev, A.Ye.Lugachev, D.A.Mamatova, A.Safoyev, R.M.Muradov, R.Rosulov, Sh.Sh.Xakimov, X.J.Abdugaffarov, X.K.Raxmonov, A.P.Mavlyanov, A.X.Bobomatov va boshqalar soha rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Xorijiy va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalash uskunalari tahlilidan ma’lumki, bugungi kunda paxtani tozalash uskunalarining samaradorliklari yuqori bo‘lgan resurstejamkor texnologiyalarini yaratish masalalari o‘zining muqobil yechimini to‘liq topmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-3-136 “Paxtani mayda iflosliklardan tozalagich konstruksiyasini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirish maqsadida tozalagichning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish va ish rejimlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagichning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish;

paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash maqsadida tozalagich burchak tezliklarining qoziqchali baraban qiyalik burchagi yoysmon to‘rli yuzalarga o‘rnatilganda ta’sir etuvchi kuchlar nazariy tahlili asosida qonuniyatlarini aniqlash;

tozalagichning ish unumdorligi va paxta xomashyosining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etuvchi maqbul parametrlarini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish; takomillashtirilgan konstruksiyali tozalagichni texnologik tizimga joriy etish va kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash uskunasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida konstruksion sxemalar, ishchi organlar harakatini ifodalaydigan dinamik va matematik modellar, bog'lanish grafiklari, uskunarlar va qurilmalar, harakat qonunlari, hamda tozalagichning tavsiya etilayotgan ishchi parametrlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida paxtani dastlabki ishlash, nazariy va amaliy mexanika, matematik statistika, solishtirish, baholash hamda matematik dasturlar paketini qo'llagan holda muvofiqlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta bo'lakchalaridan mayda iflosliklarni ajratishda unga ta'sir qiluvchi kuchlarni hisobga olgan holda massalari kichik bo'lgan bo'lakchalarga ajratishda uning titilishini oshishi asosida tozalagichning takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tozalagichning ishchi organlari yuklanishlari va harakat rejimlari yuritmalarining kinematikasini hisobga olgan holda paxta oqimi tarkibidagi ajraladigan iflosliklarni to'rtli sirt bo'ylab harakat qonuniyatlari asosida aniqlangan;

takomillashtirilgan konstruksiyali paxtani mayda iflosliklardan tozalagich uchun burovchi momentning tenzometrik nazoratiga asoslangan boshqaruv algoritmi ishlab chiqilgan, tiqilish holati valda hosil bo'ladigan burovchi momentning ortishi orqali aniqlanib, shkiqli variatorlar yordamida barabanlar aylanishlar sonining qayta taqsimlanishi ta'minlangan;

qoziqchali barabanlarni joylashining va tozalash samaradorligini oshirish maqsadida qiyalik burchagi, baraban burchak tezligi va ish unumining maqbul qiymatlari olingan ko'p omilli regrission modellarni tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani mayda iflosliklardan tozalagichning takomillashtirilgan konstruksiyasi tavsiya qilingan;

tozalash samaradorligini, tiqilishlar, chigit va tola shikastlanishini pasayishini ta'minlash, yuqori ish unumdorligida resurs tejalishini amalga oshiradigan ishchi organlar (qoziqchali barabanlarning qiya joylashishi yoysimon to'rtli yuza, qoziqchali baraban burchak tezligi ortib borishi)ning maqbul parametrlari va yangi ish rejimlari asoslab berilgan;

taklif etilgan adaptiv avtomatik boshqaruv tizimi takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalagichda tiqilish holatlarini erta aniqlash, yuklanishni barqarorlashtirish va uskuna ish unumdorligini saqlagan holda texnologik jarayonning uzluksizligini ta'minlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlarni o‘zaro mosligi, hisoblashlarda standart usullar va vositalardan foydalanilganligi hamda tavsiya qilingan paxtani mayda iflosliklardan tozalagichlarning takomillashtirilgan konstruksiyasi iqtisodiy samaradorlik bilan ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati paxtani mayda iflosliklardan tozalagichlarining ishchi organlari harakatini ifodalovchi nazariy tadqiqotlar va matematik modellarini olish, masalalarni sonli yechimlari asosida tavsiya qilingan mashinalar ishchi organlari harakat qonunlarini, parametrlarini bog‘lanish grafiklarini, harakat rejimlarini, texnologik, kinematik parametrlarini maqbul qiymatlarini aniqlaganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tozalash jarayonlarini intensivlashtirish hisobiga ish resursini oshirish, yuritgichlarning sarf quvvatini pasaytirish hisobiga yuqori unumdorlikda sifatli paxta tolasini olishni ta‘minlaydigan paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagichning konstruksiyasini takomillashtirishganligi, sifatli paxta tolasini olish uchun ishchi organlarni kerakli tezlik va tezlanishda harakatlarini ta‘minlaydigan yangi kompanovkadagi yuritish mexanizmlari ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Paxtani mayda iflosliklardan tozalagich takomillashtirilgan konstruksiyasi bo‘yicha olingan ilmiy ishlar natijalari asosida:

“Tolali materialni mayda chiqindilardan tozalagich”ga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti (№IAP 07250, 2020 y.) olingan. Natijada, paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirishga erishilgan;

ishlab chiqilgan qoziqli barabanlari qiya joylashtirilgan va to‘rli yuzasi yoysimon bir butun tozalagich “TST AGRO klaster” tarkibidagi Mustaqilik paxta tozalash korxonasi va Toshkent viloyati O‘rtachirchiq tumani “REAL AGRO COTTON” UK ning paxta tozalash korxonasida joriy etilgan. (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2026-yil 04-fevraldagi 02/06-175 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, tavsiya qilingan variantda iste‘mol qilinadigan elektrenergiya quvvati mavjud tozalagichga nisbatan 1 kVt ga kam bo‘lishiga, harakat uzatishning bitta oqim zanjiri yaratilganligiga, tozalash samaradorligini oshirishini ta‘minlashga hamda paxtani mexanik shikastlanishini 1,3% kamaytirishga imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 11 ta xalqaro, 4 ta Respublika konferensiyalarda va ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta va 1 monografiya, shundan xorijiy jurnallarda 6 ta maqola


nashr etilgan va O'zbekiston Respublikasi Intellectual mulk agentligi tomonidan 1ta ixtiroga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi paxta tozalash sanoatidagi mavjud muammolar hamda zamonaviy ilmiy-texnik rivojlanish talablari asosida asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniq belgilangan, ob'yekti va predmeti esa tavsiflangan hamda ishning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, ularning ishlab chiqarish sharoitida joriy etilganligi tasdiqlangan. Shuningdek, ishning aprotatsiyasi, e'lon qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash jarayonlarining tahliliy tadqiqi”** nomli birinchi bobida respublika sharoitida paxtani mayda chiqindilardan tozalashning mavjud texnologiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tozalash jarayonining maqsadi, fizik-mexanik mohiyati hamda sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Mayda iflosliklarni ajratuvchi texnik vositalarning konstruktiv va texnologik xususiyatlari qiyosiy baholangan. Ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari umumlashtirilib, mavjud kamchiliklari aniqlangan hamda shu asosda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan bo'lib, masalani yechimi jihatida quyidagi konstruktsiya taqdim etildi (1-rasm).



1-rasm. Tolali materialni mayda chiqindilardan tozalagich (muallif ishlanmasi, IAP07250)


1-korpus, 2-3-4-5-qoziqchali barabanlar, 6-yoysimon to'rtli yuza joylashgan, 7-yo'naltirgichlar, 8-paxta qabul qilish qismi, 9-paxta chiqarish qismi, 10-iflosliklarni chiqarish qismi, 11-qaytargichlar.

Dissertatsiyaning **“Tozalash jarayonlarida paxta bo'lakchalariga og'ma qoziqchali va yoysimon to'rtli yuzaning ta'siri tadqiqiga nazariy yondashuv”** nomli ikkinchi bobida adabiyotlar va ilmiy manbalar asosida paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash bo'yicha mavjud texnika-texnologiyalar, tozalagichlar


konstruksiyalari hamda ularning texnologik va ekspluatatsion parametrlaridagi muayyan kamchiliklar o'rganildi. O'tkazilgan nazariy tadqiqiy tahlillar natijasida amaldagi tozalagichlarda mayda iflosliklarni ajratish samaradorligi yetarli darajada emasligi, paxta bo'lakchalarining tiqilishi hamda tolaga ortiqcha mexanik ta'sir ko'rsatishning salbiy holatlari aniqlangan. Mazkur bobda paxta xomashyosini takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalagich uskunasida amalga oshirish jarayonlarida paxta bo'lakchalariga og'ma qoziqchali baraban va yoysimon to'rli yazaning ta'siri tadqiqiga nazariy yondashilib paxta bo'lakchalarini qoziqlar sirti bo'ylab harakati tahlil qilindi.

Dastlab, $\overset{\circ}{AB} = L_1$ yoy bo'ylab paxta oqimining harakatini tashqi kuchlar ta'sirida ko'rib chiqamiz.

AB yoy sirtidagi paxta oqimining harakatini ifodalovchi tenglamani umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalaymiz (2-rasm).



2-rasm. $\overset{\circ}{AB}$ yoy bo'ylab paxta oqimining harakati tasviri




3-rasm. Paxta oqimining harakatini turli xil $m_1=2\text{ gr}$; $m_2=10\text{ gr}$; $m_3=50\text{ gr}$ massadagi iflosliklardan ajratishda yoy uzunliklariga bog'liqlik grafiklari


$$L_1(t) = -\frac{R}{\mu} \ln \left[\sqrt{\frac{A}{A + \frac{\mu}{R} v_0^2}} \right] \quad (1)$$

bu yerda, $A = g(\sin\varphi + \mu\cos\varphi)$ ga teng.

Paxtani harakat trayektoriyasi OriginPro dasturidan foydalanib, maqbul qiymatlari aniqlanib grafiklari qurildi (3, 4-rasmlar).



4-rasm. Paxta oqimi harakatini turli xil $m_1=2 \text{ gr}$; $m_2=10 \text{ gr}$; $m_3=50 \text{ gr}$ massadagi iflosliklardan ajratishda markaziy burchakga bog'liqlik grafiklari



5-rasm. Takomillashgan qoziqchali barabandagi paxta bo'lakchasining harakat tasviri

Paxta bo'lakchasi harakati differensial tenglamasini tuzamiz:

$$m\ddot{x} = \frac{fC_d \frac{v^2}{2g} \gamma + mg + m\omega^2 h}{1 + \mu\mu_q} - \mu mg \cos \alpha + mg \sin \alpha \quad (2)$$

bu yerda, μ - paxtani AB sirt bilan orasidagi ishqalanish koefitsiyenti,

μ_q - paxta bilan qoziqcha orasidagi ishqalanish koefitsiyenti,

P_x - paxtani harakatlantiruchi kuch (N).

$$P_x = \frac{F_{hq} + F_g + F_{ish}}{1 + \mu\mu_q} \quad (3)$$


P_{hq} - havoning qarshilik kuchi (N), F_{ish} - markazdan qochma kuch (N),

F_g - paxtani og'irlik kuchi,


$$F_{hq} = S_P C_d \frac{v^2}{2g} \gamma, \quad F_{mg} = m\omega^2 h \quad (4)$$

S_p - qoziqchalar orasidagi paxtaning yuzasi (m^2), C_d - havoning qarshilik koeffitsiyenti $C_d = 1.1$, v - qoziqchali barabanni chiziqli tezligi (m/s), γ - havoning zichligi $\gamma = 1.24 \frac{kg}{m^3}$, m - paxta bo'lakchasini massasi (gr), ω - qoziqchali barabanni burchak tezligi (rad/s), h - qoziqcha balandligi.

Differensial tenglamani yechimi sonli usulda aniqlandi va OriginPro dasturi yordamida grafiklarda tahlil qilinib, har bir qoziqchali baraban ketma-ket $\alpha = 25^\circ$ burchakda joylashishi natijasida paxtani mayda iflosliklardan tozalashdagi jarayonini ifodalaymiz (6,7-rasm).




6-rasm. Paxta oqimi qoziqcha sirti bo'ylab harakatini har bir qoziqchali baraban ketma-ket $\alpha = 25^\circ$ burchakdagi vaqtga bog'liqlik grafiklari



7-rasm. Paxta oqimi qoziqcha sirti bo'ylab harakatini har bir qoziqchali baraban ketma-ket $\alpha = 25^\circ$ burchakdagi barabanning chiziqli tezligining turli xil $V_1 = 7.007 m/s$, $V_2 = 7,321 m/s$, $V_3 = 8,435 m/s$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafiklari

To'rtli yuza va qoziqchalar sirtida harakatlanayotgan paxta oqimi tarkibidagi ajralib chiqayotgan iflosliklar miqdorini ortishi tozalash ko'effitsiyentining yuqori bo'lishiga olib keladi. Nazariy tadqiqotlardan olingan grafikda o'z aksini topgan (8-rasm).




8-rasm. Paxta bo'lakchasini to'rtli yuza bo'ylab harakat tasviri

$$\vartheta_B = \sqrt{\frac{m \cdot H}{k}} \operatorname{tg} \left(\sqrt{\frac{mH}{k}} \cdot t \right) \quad (5)$$

$\frac{F}{m} \sin pt = H$ belgilaymiz.

M nuqta tezligini paxta bo'lakchasining massasiga bog'liqlik tenglamasini OriginPro dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilingan (9-rasm).



9-rasm. BO yoy bo'ylab paxta bo'lakchasining harakatining turli xil massadagi $m_1 = 0,03 \text{ gr}$, $m_2 = 0,05 \text{ gr}$, $m_3 = 0,07 \text{ gr}$ qiymatlarini vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi


B nuqtasidagi tezligini paxta bo'lakchasining massasiga bog'liqlik tenglamasini OriginPro dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “**Tozalagich ishchi organlari yuklanishlari va harakat rejimlarini tajribaviy tadqiqotlari natijalari**” nomli uchunchi bobida takomillashtirilgan tozalagich konstruksiyasining nazariy modeli ishlab chiqilib, paxta oqimining qoziqchali baraban va yoysimon to'rtli yuza bo'ylab harakatlanish qonuniyatlari aniqlandi. Nazariy tahlillar asosida iflosliklarning ajralish sharoitlari hamda tozalash samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy parametrlar belgilandi. Olingan

nazariy natijalarning ishonchliligini tahlil qilish va ularning amaliy jarayonga mosligini baholash maqsadida tajribaviy tadqiqotlar o'tkazildi.


Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagichni qoziqli barabanlari vallaridagi qarshilik momentlari va vallarni aylanish sonlarini aniqlash uchun tenzodatchik va Xoll datchiklardan foydalanildi.

Tenzodatchiklar valning tozalangan sirtiga uning o'qiga nisbatan 45° burchak ostida yelimlandi. Tenzodatchiklarni valarga yelimlanish sxemasi 10-rasmda keltirilgan. Vallardagi qarshilik momentlarni o'lchash uchun qarshiliklari 350 Om, uzunligi 10 mm bo'lgan tenzodatchiklar (BHF350-3HA) ko'prik usulida yelimlandi (10-rasm).




10-rasm. Tenzodatchiklarni paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagich vallarga yelimlash sxemasi

Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagich vallaridagi qarshilik momentlarni tarirovkalash uchun moslama ishlab chiqilib, natijalar asosida tarirovkalash grafigi qurildi. Valning aylanish soni magnitli Xoll datchigi yordamida aniqlandi. Bunda val shkiviga magnitlar yopishtirildi. Datchikning ishlashi quyidagicha: har bir magnit datchikka yaqinlashganda tok ulanadi va uzoqlashganda uzadi, uzib-ulanishlar orasidagi vaqtni aniqlab bir minutdagi aylanishlar soni aniqlanadi. 11-rasmda ulanish tasviri keltirilgan.




11-rasm. Valning aylanishlar sonini aniqlash tasviri

Tozalovchi agregatning ishchi organlarini uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun, to'rtta elektr yurituvchilar o'rniga quvvati 10 kVt, $n=1000 \text{ min}^{-1}$ elektr yurituvchidan va ta'minlagich valiklari uchun quvvati $P=1 \text{ kVt}$, aylanish soni $n=(0\div 20) \text{ ayl/min}$, motor-reduktordan foydalaniladi. Agregatning yurituvchi mexanizmlarini tavsiya qilinadigan tasviri 12-rasmda keltirilgan.




12-rasm. Yuritmalari yangi kompanovkali paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalovchining kinematik sxema yon tomondan ko'rinishi
 1-elektrodvigatel, 2-motor-reduktor, 3-ta'minlovchi valiklar,
 4-tasmali uzatma, 5-12 qoziqchali baraban, 13-chiqarish qismi, 14-havo tuynigi,
 15-mayda iflosliklarni chiqarish qismi.

Mavjud va takomillashtirilgan konstruksiyadagi uskunalarni yuritmalari iste'mol qilinadigan quvvatni aniqlash maqsadida quyidagi tajriba sinovlari olib borildi. Yuritma iste'mol quvvatini aniqlashda *L-Card E-440* qurilmasi, ulanish sxemasi 13-rasmda keltilgan.



13-rasm. Uskunasinig iste'mol qilinadigan quvvat aniqlash tasviri



14-rasm. Uskunasinig iste'mol qilinadigan quvvat qiyosiy grafigi

L-Card E-440 qurimasidan olingan grafikda takomillashtirilgan konstruksiyadagi uskuna (ko'k chiziq) hamda mavjud uskuna (yashil chiziq)ning ish jarayonida elektr toki amplitudasi (I) ning (Gerts) chastotaga bog'liqligi 14-rasmda

tasvirlangan, tajriba natijalariga ko'ra, takomillashtirilgan konstruksiyadagi uskuna mavjud uskunaga nisbatan:

- o'rta tok sarfini kamaytiradi;
- cho'qqi yuklamalar sonini keskin qisqartiradi;
- mexanik tebranishlarni barqarorlashtiradi;
- elektr dvigatelga tushadigan yuklama oqimini maqbullashtiradi.

Natijada takomillashtirilgan konstruksiya mavjud uskunaga nisbatan 0.15 kVt ga yaqin energiyani tejaydi. Bu ishlab chiqarish jarayonida elektr xarajatlarini qisqartiradi va uskunaning umumiy texnik-iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Takomillashtirilgan paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagichni yuritmadagi ishchi organlar vallaridagi harakat rejimlari tahlilini o'tkazishda tavsiya etilgan tozalash agregatida asosan quyidagilar ta'minlanadi:

-ishchi organlar ishlash rejimlari o'zaro bog'liq va jarayon uzluksiz amalga oshirish;

-paxta bo'laklarini harakatini yetarlicha ta'minlash hamda tiqilishlar bo'lmasligi uchun har bir ketma-ketlikda o'rnatilgan keyingi ishchi organ burchak tezligini ortib borishi ta'minlanadi;

-ishchi organlarni aylanma tebranishlari ularni joylashish ketma-ketligida kamayib borishi ta'minlanadi. Bu paxtani tozalash tizimida borgan sari titish darajasi ortib borashiga olib keladi;


-elektr yuritgichlari soni kamayishi hisobiga quvvat sarfi kamayadi, resursi ortadi;

-qoziqchali barabanlar burchak tezliklari shkiv diametrni o'zgarishi hisobiga ortib borishi ta'minlangan.





Tavsiya etilgan takomillashtirilgan paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalovchi takomillashtirilgan 1XK agregatining 3-6 qoziqchali barabanlari yuklanishlari va burchak tezliklari (aylanish chastotalarini) o'zgarish qonuniyatlarini yoysimon to'rtli yuza va qoziqchali barabanlar joylashuvi gorizontol o'qqa nisbatan (α) burchak hisobiga o'zgarish qiymatlari tajribalarda uchunchi oltinchi qoziqli barabanlarining aylanish chastotalari va vallaridagi burovchi momentlarini ish unumi va qiyalik burchagi bog'liqligi aniqlandi. Olingan harakat qonuniyatlari va bog'lanishlar tahliliga asosan oltinchi qoziqli baraban valini aylanish chastotasi $\alpha=25^0$ bo'lganida ish unumi 3,0 t/s dan 5,0 t/s gacha ortganida n_3 qiymatlari 334,72 ayl/min dan 368,8 ayl/min gacha noxiziqli qonuniyatlar ortadi, lekin oltinchi qoziqli barabanda esa, (n_6) o'zgarishlari 368,8 ayl/min dan 402,9 ayl/min gacha ortadi. Mos ravishda ularni tebranish qamrovlari Δn_3 niki 34,08 ayl/min gacha ortadi, Δn_6 niki 34,1 ayl/min gacha ortadi.

Qiyalik burchagi $\alpha=35^0$ gacha oshsa, n_3 ning qiymatlari 368,8 ayl/min dan 334,72 ayl/min gacha, n_6 qiymatlari 402,9 ayl/min dan 368,8 ayl/min gacha kamayadi. Tebranish qamrovlari Δn_3 qiymatlari $\alpha=35^0$ da 17,7 ayl/min dan 25 ayl/min ga ortadi, Δn_6 esa 14,1 ayl/min dan 19,6 ayl/min gacha ortadi. Demak, paxtani tozalash jarayonini uzluksizligini ta'minlash va tiqilishlar bo'lmasligiga erishish uchun beshinchi qoziqli baraban ish unumi 1,0 t/s bo'lganida aylanish chastotasi esa $(334,72 \div 368,8)$ ayl/min, oltinchi qoziqchali barabanda aylanish

chastotasi (368,8÷402,9) ayl/min oralig'ida, tebranish qamrovlari Δn_3 , Δn_6 lar uchun $\alpha=25^0$ olish tavsiya etiladi. Bunda $n_1=n_2=n_3=295$ ayl/min, $n_4=334,72$ ayl/min, $n_5=368,8$ ayl/min, $n_6=n_7=n_8=393,3$ ayl/min oralig'ida olish tavsiya etiladi. Mos ravishda qiyalik burchagini $\alpha=25^0$ qilib olish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash lozimki, quvvat sarfi o'rtacha qiymati oralig'ida qoziqli baraban aylanish chastotasi ortishi bilan uning validagi burovchi momenti mos ravishda kamayadi. 15-rasmda beshinchi va oltinchi qoziqchali barabanlar vallaridagi burovchi momentlarini va llarning tebranish qamrovlarini tozalagich ish unumiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan.



5-rasm. Kiruvchi va chiquvchi qoziqli barabanlar aylanish chastotalarining o'zgarishini va burovchi momentni ish unumiga bog'liqlik grafiklari



BELGILAR VA QISQARTMALAR	
$n_{i,nom}$	i -valning aylanishlar soni, ayl/min
n_i	i -vallarning nominal aylanishlar soni, ayl/min
Δn	aylanishlar soni o'zgarish qivmati, ayl/min
S_i	Tiqilish indikatorini (0 yoki 1)
E_i	Xatolik
K_p, K_d	PD-regulyator koeffitsiyentlari
φ_i	Step (qadamli) dvigatellar aylanishi
D_i	Shkiv diametri, mm

16-rasm Takomillashtirigan konstruksiyali paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagichda burovchi moment bo'yicha tenzometrik nazorat va shkivli variatorlar asosida adaptiv avtomatik boshqaruv algoritmini blok-tasviri

Paxta tozalash uskunasi adaptiv avtomatik boshqaruv tizimi va algoritmi ishlab chiqildi (16-rasm). Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash jarayonini barqarorlashtirish maqsadida, sakkiz barabanli tozalagich uchun burovchi moment asosida ishlovchi adaptiv boshqaruv tizimi yaratildi.

Tizimning asosiy maqsadi paxtaning namligi va iflosligi o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan texnologik tiqilishlarning oldini olishdir.

Tizimning ishlash tamoyili va komponentlari. Tizim ESP32 DevKit mikrokontrolleri bazasida qurilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarda ishlaydi: tenzometrik nazorat har bir barabanning (2÷9) yuklanishi ACS712-30A datchiklari yordamida elektr dvigatel tokini (I_i) o'lchash orqali bilvosita aniqlanadi $M_i = k_M \cdot I_i$. Maksimal yuklanishni aniqlash barcha barabanlar orasidagi eng yuqori burovchi moment (M_{max}) hisoblanib, belgilangan me'yor bilan solishtiriladi. PD-regulyator va Adaptiv boshqaruv: Agar $M_{max} > M_{belgilangan}$ bo'lsa, tiqilish xavfi aniqlanadi. PD-regulyator yordamida aylanishlar sonini o'zgartirish qiymati (Δn) hisoblanadi:

$$\Delta n = K_p E(t) + K_i \int E(t) dt + K_d \frac{dE(t)}{dt} \quad (6)$$

Tezlikni qayta taqsimlash: tiqilishni bartaraf etish uchun muammoli baraban va undan keyingilarining aylanishlar soni oshiriladi ($n_i = n_i + \Delta n$), oldingi barabanlarning tezligi esa kamaytiriladi.

Tizim 10 Gts (100 ms) so'rov chastotasi bilan ishlaydi, bu esa real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beradi. 1-baraban chastota o'zgartirgich orqali, qolganlari esa shkivli variatorlar yordamida adaptiv boshqariladi.

Tajriba natijalari tahlil qilinib, tadqiq etilayotgan jarayonning matematik modelini tuzishda foydalaniladi. Bu model odatda matematik munosabatlar tizimi sifatida ifodalanadi.

Tajribaviy tadqiqotlar ma'lumotlarini qayta ishlash tartibiga muvofiq, matematik modellashirishda quyidagi hisobiy ishlar bajarildi:

Kiruvchi omillar sifatida esa quyidagilar olindi (1-jadval):

1-jadval

Kiruvchi omillar o'zgarish qiymatlari

№	Omillar nomi	Kodlash-tirilgan belgisi	O'zgarish oralig'i	Omillar haqiqiy qiymatlari		
				yuqori +1	asosiy 0	quyi -1
1	Qiyalik burchagi α , grad	x_1	5	35	30	25
2	Ish unumdorligi, t/soat	x_2	1	7	6	5
3	3-qoziqchali barabanning burchak tezligi ω_3 , rad/s	x_3	1,785	38,605	36,82	35,035
4	6-qoziqchali barabanning burchak tezligi ω_6 , rad/s	x_4	1,785	42,175	40,39	38,605

Chiquvchi omil sifatida y - tozalash samaradorligi (%) qabul qilindi.

Kodlangan o'zgaruvchili regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = 77.51 - 1.3913x_1 - 1.1938x_2 + 1.0513x_3 + 2.2838x_4 - 1.3738x_1x_3$$


Olingan regression modelni tahlili asosida kiruvchi omillarning quyidagi maqbul qiymatlari olindi:

qiyalik burchagi $\alpha=25^0$;


ish unumdorligi $Q=6$ t/soat;

3-qoziqchali barabanning burchak tezligi $\omega_3=38,605$. rad/s;


6-qoziqchali barabanning burchak tezligi $\omega_6=42,175$ rad/s.




17-rasm. Burchak tezligni qiyalik burchagiga bog'liq grafigi



18-rasm. Burchak tezligni ish unimdorligiga bog'liq grafigi



19-rasm. Ish unimdorligining qiyalik burchagiga bog'liq grafigi



20-rasm. Burchak tezligni ish unimdorligiga bog'liq grafigi

17-rasmda qoziqchali barabanlarning qiyalik burchagi $\alpha=25^0$ qiymatida va 3-qoziqchali baraban burchak tezligining $\omega_3=38.605$ rad/s qiymatida tozalash samaradorligi 84.5 % gacha oshganligi keltirilgan. Bunda paxta oqim sarfi $Q=5$ t/s qiymatida hamda 6-qoziqchali baraban burchak tezligi $\omega_6=42.175$ rad/s qiymatlariga erishildi.


18-rasmda paxta oqim sarfining $Q=5$ t/s qiymati va 3-qoziqchali baraban burchak tezligining $\omega_3=35.605$ rad/s qiymatida tozalash samaradorligi 84.5% gacha oshganligi keltirilgan. Bunda qoziqchali barabanlarning qiyalik burchagining $\alpha=25^0$ qiymatlarida hamda 6-qoziqchali barabanning burchak tezligi $\omega_6=42.175$ rad/s qiymatlariga erishildi

19-rasmda qoziqchali barabanlarning qiyalik burchaklarini $\alpha=25^0$ qiymatlari va paxta oqim sarfining $Q=5$ t/s qiymatlarida tozalash samaradorligi 84.5% gacha oshganligi keltrilgan 3 va 6 qoziqchali barabanlarning burchak tezliklarini $\omega_3=35.605$ rad/s va $\omega_6=42.175$ rad/s qiymatlarida erishildi.

20-rasmda paxta oqim sarfining $Q=5$ t/s qiymati va 6-qoziqchali barabanning burchak tezligi $\omega_6=42.175$ rad/s qiymatida tozalash samaradorligi 81.32% gacha oshganligi keltirilgan. Bunda qoziqchali barabanlarning qiyalik burchagining $\alpha=25^0$ qiymatlarida hamda 3 qoziqchali barabanning burchak tezligi $\omega_3=35.605$ rad/s qiymatlariga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Paxtani mayda iflosliklardan tozalash agregati takomillashtirilgan konstruksiyasini qiyosiy sinov natijalari va iqtisodiy samaradorligi”** nomli to‘rtinchi bobida takomillashtirilgan tozalagichning ishchi organlari yuklanishi, harakat rejimi hamda tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tajribaviy asosda aniqlanib, ularning maqbul qiymatlari belgilandi. Olingan natijalar konstruksiyaning samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqladi hamda uni ishlab chiqarish sharoitida qiyosiy sinovdan o‘tkazish va iqtisodiy baholash zarurligini ko‘rsatdi (21-rasm). Sinovlar **“REAL AGRO COTTON”** UK Qorasuv paxta tozalash korxonasi hamda **“TCT agro cluster”** MChj klastter tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonalarida o‘tkazildi. Sinovlarda ishlab chiqilgan takomillashtirilgan tozalagichda $\alpha=25^\circ$ burchak ostida joylashgan qoziqchali barabanlar bir butun yoysimon to‘rli yuza hamda unga o‘rnatilgan yo‘naltirgich va qaytargichlar bilan jihozlangan. Tozalagich belgilanagan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keldi.

Ishlab chiqarilgan paxta tolasidagi ifloslik va nuqsonlar miqdori mavjud texnologiya asosida 3,43% ni tashkil etib, davlat standarti bo‘yicha II nav **“Yaxshi”** sinfiga mos kelgan. Takomillashtirilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalagichda tozalangan paxta tolasidagi ifloslik va nuqsonlar miqdori 2,89% gacha kamaytirilib, davlat standarti bo‘yicha II nav **“Oliy”** sinfdagi tola ishlab chiqarishga erishildi.



Taklif etilgan tozalash uskunasi takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish va sifatli tola olish natijasida olinadigan iqtisodiy samaradorlik **“TST Agro cluster”** tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida 54 622 0 ming so‘m, **“REAL AGRO COTTON”** UK Qorasuv paxta tozalash korxonasida esa 55 447 0 ming so‘mni tashkil etdi.

21-rasm. Takomillashtirilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash agregatini ishlab chiqarishga qo‘llanilishi

XULOSA

1. Mavjud paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinalarining to‘rli yuza konstruktiv tuzilishi paxta xomashyosini yetarlicha titilishini ta’minlay olmasligi, tola orasidagi mayda iflosliklarni ajralish samaradorligiga salbiy ta’sir etishi aniqlandi.

2. Paxta tolalarining titilish jarayonida hajmi kengayib borishini inobatga olganda, tozalagichda qo‘llaniladigan qoziqli baraban bilan to‘rli yuza orasidagi maqbul oraliq masofani saqlab, to‘rtta qoziqchali baranni gorizontol o‘qqa nisbatan qiyalik burchagiga teng va bir butun to‘rli yuzani ilmiy jihatdan asoslash zaruriayti

tug'iladi. Bu konstruktiv yechim paxta oqimining havo harakati, paxta bo'lakchasini tezligi va tozalash samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

3. Paxta bo'lakchasidan iflosliklarni ajratishda qoziqchalarning uzatishdagi ta'siri tashqi kuchlar (og'irlik, markazdan qochma va ishqalanish) hisobga olingan holda to'rtli sirt bo'ylab harakati asosida tahlil qilindi. Takomillashtirilgan qoziqchali barabanlar ta'sirida bo'lakchalarning ketma-ket uzatilishi ta'minlanib, mayda iflosliklarni ajratish samaradorligi oshishi ilmiy asoslandi. Tadqiqotlar $k=0,50\div0,65$, $V=3,5\div8,5\text{ m/s}$, $f=0,25\div0,30$, $m=0,20\div0,30\text{ g}$, $\varphi=10\div20^\circ$, $R=0,16\div0,20\text{ m}$, $g=9,81\text{ m/s}^2$ parametrlar oralig'ida olib borildi.

4. Ishqalanish koeffitsiyenti μ ning oshishi bilan qiya qoziqcha sirtida paxta bo'lakchasiga ta'sir etuvchi bog'lanish va normal kuchlar kamayib, iflosliklarni ajratish samaradorligini ifodalovchi ε koeffitsiyenti ortishi aniqlandi. Xususan, $\mu=0,02$, $h=0,3$ da normal va bog'lanish kuchlari 7 N va 10 N, $\mu=0,3$ da esa 5 N va 6 N ga teng bo'lib, $\varepsilon=15\div22\%$ oralig'ida o'zgardi. Qoziqchaning qiyalik burchagi $\varphi=5^\circ\div70^\circ$ bo'lganda to'rtli yuzaning kamayishi bilan R , N va ε qiymatlarining pasayishi kuzatildi.

5. Kompanovkadagi yuritmalarga ega bo'lgan takomillashtirilgan 1XK agregati konstruksiyasi ishlab chiqildi va ilmiy asoslandi. Taklif etilgan sxemada ishchi organlarning aylanish chastotalari paxta harakati yo'nalishi bo'yicha bosqichma-bosqich ortib boruvchi qonuniyat asosida tanlandi: $n_1=n_2=n_3=295\text{ ayl/min}$, $n_4=334,72\text{ ayl/min}$, $n_5=368,8\text{ ayl/min}$, $n_6=n_7=n_8=393,3\text{ ayl/min}$. Ushbu chastotalar ketma-ketligi natijasida paxta bo'lakchalarining uzatilishi uzluksiz ta'minlanib, tiqilishlar to'liq bartaraf etildi. Elektr yuritgichlar sonining qisqartirilishi va yuklamalarning qayta taqsimlanishi hisobiga agregatning o'rtacha quvvat sarfi 1 kVt ga kamayshga erisildi. Natijada tozalash tizimining umumiy texnik-iqtisodiy samaradorligi oshirildi.

6. O'tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida aylantiruvchi moment bo'yicha teskari aloqa asosida ishlovchi PD-regulyatorli avtomatik boshqaruv tizimi ko'p barabanli paxta tozalash uskunalarida texnologik jarayonning barqarorligini ta'minlashi isbotlandi. Natijada mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi oshib, energiya sarfi kamayadi va iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

7. Nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida takomillashtirilgan qoziqchali barabanlarda paxta oqimining harakat qonuniyatlari aniqlanib, tozalash jarayonining maqbul texnologik parametrlari belgilandi. Paxta sarfi $Q=5\text{ t/soat}$, qoziqchali barabanlarning qiyalik burchagi $\alpha=25^\circ$, to'rtli yuzaning yoysimon va bir butun konstruksiyada bajarilishda tozalash jarayonining barqarorligi ta'minlandi. Tozalash samaradorligi 84% gacha oshdi, chigitning mexanik shikastlanishi 1,3% martaga kamaydi va tiqilishlar mutlaqo kuzatilmadi. $\alpha=25^\circ$ burchak va bosqichma-bosqich ortuvchi burchak tezliklar paxta oqimini uzluksiz uzatish hamda tozalash samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun eng maqbul rejim hisoblanadi.

8. Takomillashtirilgan paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi "REAL AGRO COTTON" hamda "TCT agro cluster" tarkibidagi korxonalarda o'tkazilgan qiyosiy sinovlarda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Tozalash darajasi $76,7\div77,2\%$ dan $83,8\div84,4\%$ gacha oshib ($\approx 7\div8,5\%$), paxta ifloslanishi 7,88 % dan 6,33 %

gacha kamaydi. Toladagi nuqsonlar 5,73 % dan 4,16 % gacha qisqarib, shtapel uzunligi 38,3 mm gacha yetdi. Tiqilishlar 2–3 martadan 0 holatgacha kamaydi. Natijalar konstruksiyaning texnologik ustunligini tasdiqlaydi.

9. Mazkur uskunani ishlab chiqarishga joriy etish iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, o‘rnatilgan quvvat 16,5 kVt dan 11 kVt gacha kamaydi, elektr energiya sarfi esa 55 447 ming so‘mdan 43 685 ming so‘m (≈ 21 %)gacha qisqardi. Ekspluatatsiya xarajatlari 109 039 ming so‘mdan 99 217 ming so‘mgacha kamayib, yillik iqtisodiy samaradorlik 54 622 ming so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЁГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

НЕМАТОВ АББОСЖОН КАЙИМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ ОЧИСТИТЕЛЯ
ХЛОПКА ОТ МЕЛКОГО СОРА**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника
и робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент - 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под регистрационным номером B2023.2.PhD/T3675.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещена на веб-сайте Научного совета по адресу (<http://www.ttrsi.uz>) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Маматова Дилрабо Алишеровна
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хакимов Шеркул Шергозиевич
доктор технических наук, профессор

Ибрагимов Фарход Хайруллаевич
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

Джиззакский политехнический институт

Защита диссертации состоится 26 июня 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5. Административное здание Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория Тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирован за №302) (Адрес: 100100, Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-08-08).

Автореферат диссертации разослан 13 июня 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 302 от 13 июня 2026 года).



Х.Х.Камилова

Председатель Научного совета по присуждению
Учёных степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению
Учёных степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Введение

Актуальность и необходимость темы диссертации. Интенсивное развитие одного из важных звеньев текстильной промышленности в мировой экономики настоящее время является приоритетным. В этой связи по выращиванию и переработке хлопкового волокна в ряде ведущих стран, таких как Китай, США, Индия и Турция ведутся широкомасштабные исследования для технологического процесса первичной обработки хлопка по производству и усовершенствованию рабочих органов. В этом направлении особое внимание обращается к использованию применяемых, новых энерго-ресурсосберегающих машин и оборудования, а также их глубокому усовершенствованию.

В мире ведутся научно-исследовательские работы по усовершенствованию технологии очистки хлопка-сырца от сора и производству энерго-ресурсосберегающего оборудования, развитию их научных основ, производства автоматически управляемых системы контроля режимов и работы технологических машин очистки хлопка и качества изделий, определению приемлемых факторов, влияющих на технологические процессы. В этом направлении в мировой хлопкоочистительной промышленности важной задачей является усовершенствование оборудования и использование ресурсосберегающих технологий. При этом особое внимание обращается к созданию эффективной технологии очистки хлопка от сорных примесей и ресурсосберегающих конструкций рабочих органов и обоснованных рабочих режимов очистки хлопка.

В Республике Узбекистан осуществляется комплекс мероприятий, направленных на создание широкого ассортимента качественных хлопковых изделий. Углубление местного производства, увеличение экспортных возможностей местных производителей. В стратегии развития Нового Узбекистана, направленной на 2022–2026 годы является продолжение политики промышленного развития и поставлена задача, обеспечить устойчивость национальной экономики. Увеличение доли промышленности во внутреннем продукте и объём промышленных изделий в 1,4 раза, при этом объём текстильных изделий увеличивается в 2 раза. Осуществление этих задач, в том числе усовершенствование технологий изготовления машин по требованию времени, разработка новых видов рабочих органов и передач технологических машин хлопковой промышленности, создание высокоэффективного и ресурсосберегающего оборудования для очистки хлопка-сырца от мелкого и крупного сора является важной задачей в настоящее время.

Диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению намеченных задач в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № РФ-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана», Постановлении от 16 ноября 2021 года № ПГ-14 «О мероприятиях по упорядочению деятельности кластера хлопок-текстиль, а также в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан» 14 января 2020 года № 21 «О мерах по повышению уровня механизации сбора урожая

хлопчатника в регионах республики» и 22 июня 2020 года № 397 «О мерах по дальнейшему развитию хлопкового и текстильного производства».

Соответствие исследования устойчивым направлениям развития науки и технологии. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологии Республики II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. По усовершенствованию оборудования для очистки хлопка были проведены ряд научных исследований зарубежными учеными N.N.Willut, S.E.Hughs, G.J.Mangialardi, S.G.Jasckson, G.C.Robert, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Barker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.VanDoorn B.M.Norman и другими.

А также учеными Республики Узбекистан такие как В.А.Левкович, С.Б.Болтабоев, А.Н.Нуралиев, С.А.Самандаров, Г.И.Мирошниченко, Р.З.Бурнашев, Г.Д.Джаббаров, Г.И.Болдинский, Р.В.Корабелников, Б.И.Роганов, Х.К.Турсунов, А.Джураев, Э.Т.Максудов, Т.М.Кулиев, А.Е.Лугачев, Д.А.Маматова, А.Сафоев, Р.М.Мурадов, Р.Росулов, Ш.Ш.Хакимов, Х.Ж.Абдугаффаров, Х.К.Рахмонов, А.П.Мавлянов, и А.Х.Бобоматов внесли большой вклад в развитие отрасли, в усовершенствование техники и технологии очистки хлопка-сырца от мелких и крупных сорных примесей, показателей и режимов работы рабочих органов.

Из аналитического анализа оборудования для очистки хлопка сырца от мелкого и крупного сора, используемых в зарубежных и местных предприятиях известно, что в настоящее время задача о создании оборудования для очистки хлопка с повышенной эффективностью и ресурсосберегающими технологиями не решена полностью.

Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ научно-исследовательского учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках темы ITD-3-136 “Усовершенствование конструкции очистителя хлопка от мелкого сора” Ташкентского института текстильной и легкой промышленности.

Целью исследования. Является разработка усовершенствованной конструкции эффективного очистителя хлопка-сырца от мелкого сора и обоснование её рабочих режимов.

Задача исследования:

разработка усовершенствованной конструкции очистителя хлопка от мелкого сора;

определение закономерности с целью очистки хлопка-сырца от мелкого сора при расположении колковых барабанов под углом над сетчатыми поверхностям на основе теоретического анализа действующих сил;

